

MANSUROV KAMIL TAXIROVICH

Elektron manzil: info@api.uz

Telefon: **244-20-10**

Qabul kunlari: **Payshanba - 15:00-18:00**

1963 yil Toshkent shahrida tugʻilgan.

Millati - oʻzbek.

Ma'lumoti oliy. 2001 yilda Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoati institutini tamomlagan. Matbaa ishlab chiqarish texnologiyasi ixtisosligi boʻyicha mutaxassis.

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasining a'zosi.

1982 yildan Toshkent davlat universiteti laboranti;

1985 yildan Toshkent "Matbuot" poligrafiya ishlab chiqarish birlashmasi graveri, 2-, 3-razryadli probisti;

1986 yildan "Tashselmash" zavodi 2-razryadli graveri;

1987 yildan Toshkent "Matbuot" poligrafiya ishlab chiqarish birlashmasi bosma qolip tayyorlash sexi 3-, 4-, 5-razryadli probisti, ustasi;

1991 yildan Toshkent Poligrafiya kombinati ustasi, katta ustasi, issiqlik texnika sexi boshligʻi, bosma qolip tayyorlash sexi direktori;

2001 yildan Toshkent Poligrafiya kombinati raqamli texnologiya markazi direktorining oʻrinbosari, raqamli texnologiya markazi boshligʻi;

2004 yildan "Oʻzbekiston" NMIUning raqamli texnologiya markazi boshligʻi;

2004 yildan "Oʻzbekiston" NMIU bosh muhandisi;

2013 yilda "Oʻzbekiston" NMIU direktorining iqtisod boʻyicha oʻrinbosari;

2013 yildan Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligi Bosh direktorining oʻrinbosari.

Noshirlik-matbaa sohasida ishlab chiqarish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va qoʻllash, standartlash va sertifikatlash masalalarini hamda tarmoqda davlat standartlari, texnik shartlar va talablarni tadbiiq etish ishlarini tashkil etadi.

Matbaa faoliyatini ko'rsatish bo'yicha belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar ishi, matbaa xizmatidan foydalanuvchi iste'molchilar huquqlariga amal qilish ustidan davlat nazoratini uyushtirish va amalga oshirish qoida va tartiblarining ishlab chiqilishi hamda tasdiqlanishini tashkil etadi.

Agentlik apparatiga va uning tizimidagi korxonalar va tashkilotlarga yuklatilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash masalalarining muvofiqlashtiruvchisi hisoblanadi.